

T. G'AFFOROVA, E. SHODMONOV, X. G'ULOMOVA

ONA TILI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik

O'n beshinchi nashr

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi
vazirligi tasdiqlagan*



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2019

UO'K 811.512.133 (075.2)

KBK 81.2.O'z-2-922

G' - 27

T a q r i z c h i l a r :

Maryam Abdullayeva – Toshkent viloyati TXXQTMOI
katta o'qituvchisi;

Zarifa Jumanova – Respublika Ta'lim markazi Boshlang'ich
ta'lim bo'limi boshlig'i;

Dilnoza Baynazarova – Toshkent shahar Yunusobod tumani
302-umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Shartli belgilar:



— savol va topshiriqlar



— uyda bajaring



— multimedia ilovasi



— dars tugadi

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari
hisobidan chop etildi.**

ISBN 978-9943-26-901-9

© T.G'afforova, E.Shodmonov, X.G'ulomova.

© «Sharq» NMAK Bosh tahririyati, 2003, 2004, ...
2018, 2019.



Ona tilim

Ona tilim, jon tilim,
Sen o'zingsan jon-dilim.
Yuragimning to'rida
Sayrab turgan bulbulim.

Sen borsan — men
tirikman,
Suyumliman, suyukman.
Men sen bilan ardoqli,
Men sen bilan
buyukman.

Muhammad Yusuf



TOVUSHLAR VA HARFLAR

Tovush va harf



1-mashq. Rasmda kimlar tasvirlangan?



■ Soʻzlarni oʻqing. Qaysi tovush soʻz maʼnosini oʻzgartiryapti?

Aka — uka, ota — ona — opa,
bola — xola, buva — buvi.

■ Tovushlar sonini aniqlang. Koʻchiring.

Tovushlarni talaffuz qilamiz va eshitamiz. Oʻzbek tilida 30 ta tovush bor.



2-mashq. O'qing. So'zlarning bitta tovushini tushirib, yangi so'z hosil qiling.

Anhor — , bahor — ,
hunar — , dona — .

So'zlarning ma'nosini o'zgartirayotgan tovushni ayting. So'zlarni juft holda yozing.



3-mashq. Rasmdagi bolalarga ism qo'ying. Ular nima qilyaptilar?



Javob yozing:

Bolalar ismida qaysi tovushlar ishtirok etgan? Tovushlarni almashtirib, yangi ismlar hosil qiling.

Namuna: Eldor – Elyor.


Tovushlar harflar bilan ifodalanadi.
Harflarni yozamiz, ko'ramiz va o'qiymiz. O'zbek yozuvida 29 ta harf bor.



4-mashq. Rasmdagi hayvon va narsalar nomini ayting va yozing.



--	--	--	--



--	--	--	--



--	--	--	--	--



--	--	--	--

So'zlardagi tovush va harflar sonini ayting. Qaysi tovushlar so'z ma'nosini o'zgartiryapti?



5-mashq. So'zlarning bitta tovushini o'zgartirib, yangi so'z hosil qiling va yozing.

Qovun — sovun, ikki — _____,
so'qmoq — _____.

Foydalanish uchun harflar: **u**, **t**.

So'zlarning ma'nosini izohlang.

6-mashq. Qovun nomlarini aniqlang.

Qovunlar

Ananas – qasir-qusur,
Pichoqqa ilinmaydi.
Oqurug' — mayiz, holva,
Po'chog'i bilinmaydi.
Bo'rikalla, asati,
Ko'kturnasin aytmayman.
Ming til bilan so'zlab ham
Maqtoviga yetmayman.



Tolib Yo'ldosh

■ Qovun nomlarini ko'chiring. Qavs ichida tovush va harflar sonini yozing.



7-mashq. Ko'rsatkichlar asosida oltita so'z tuzing va yozing.

	o	t	a	
	n	o	n	
	a	k	a	

■ Tuzgan so'zlaringizning ma'nosini izohlang.

Savollarga og‘zaki javob bering:

1. O‘zbek tilida nechta tovush bor?
2. Tovushni nima qilamiz?
3. Tovushlar yozuvda nimalar bilan ifodalanadi?
4. O‘zbek tilida nechta harf bor?
5. Nimani yozamiz, ko‘ramiz, o‘qiy-miz?



Unli tovushlar va harflar




8-mashq. O‘qing. She‘r qaysi shahar haqida ekanini toping.

Poytaxt shahar, bosh shahar,
Qadim tuproq, Shosh shahar...
Sen tinchlik qo‘ng‘irog‘i,
Sen ozodlik kuyisan.

Muhammad Yusuf

She‘rning dastlabki ikki qatorini ko‘chiring. Unlilar tagiga chizing. Qaysi tovushlarsiz so‘z hosil bo‘l-maydi?

9-mashq. Harflardan foydalanib, soʻzlar tuzing va yozing.



■ Soʻzdagi qaysi tovush tushirib qoldirilsa, soʻz hosil boʻlmaydi?



10-mashq. Oʻqing. Uchinchi va toʻrtinchi gaplarni koʻchiring. Unlilarning tagiga chizing.

Qishda dalalarni, bogʻlarni oppoq qor qoplaydi. Bahorda qorlar eriydi. Qorning suvlari yerning chanqogʻini qondiradi. Hosilning moʻl boʻlishiga yordam beradi.



11-mashq. Soʻzlarning birinchi boʻgʻinida **a** tovushini talaffuz qiling.

Baho, bahor, davlat, jahon, javon, hammom, havo, Shavkat.

■ Koʻchiring. Soʻzning qaysi oʻrnida xato qilish mumkinligini ayting.

12-mashq. Nuqtalar o'rniga **a** yoki **o** unlisini qo'yib o'qing.



q	.	v	o	q
---	---	---	---	---



q	.	r	m	o	q
---	---	---	---	---	---

■ Undoshni almashtirib, yangi so'zlar tuzing va yozing. So'z ma'nosi-ning o'zgarish sababini ayting.



13-mashq. Nuqtalar o'rniga **a** yoki **o** unlisini qo'yib yozing.

Xondayliq qishlog'i tog'lar bilan o'ralgan. Uning h.vosi mus. ffo, sh.moli yoqimli. Men tog'larni t.m.sha qilishni yoqtiraman.

Sobit G'afurovdan

■ **a** va **o** unlilarining aytilishi va yozilishini izohlang.



14-mashq. Tez aytishni bir nafas bilan necha marta ayta olasiz?

1. Tursunda to'rtta to'rqop bor.
2. Gulsum guldonda gul keltirdi.

■ Ko'chiring. **u** unlisi o'rniga **i** unlisi qo'llanganda so'z ma'nosida qanday o'zgarish bo'ladi?

■ Ularning qaysi bo'g'inida xato qilish mumkin?

a, e, i, o, u, o' — unli tovushlarni ifodalovchi harflar.

15-mashq. So'zlarni o'qing. Oxirgi bo'g'indagi **u** unlisining talaffuziga e'tibor bering.



chumchuq



boyqush



bulbul



qirg'ovul



burgut

■ Ko'chiring. **u** unlisining tagiga chizing.



16-mashq. O'qing. Nuqtalar o'r-niga mos unlini qo'yib ko'chiring.

1. Teshik tuyn.k yonida
Sichqon poylar bir botir.
Mush.kvoyning xizmatin
Tekinga qilayotir.



2. Bu issiq yurt qushi,
Sov.qqa yo'qdir xushi.
Bir qarichcha tumsh.g'i
Taquir-tuq.r qo'shig'i.



■ So'zning ikkinchi bo'g'inida u unlisi qaysi unli kabi aytil-di?



17-mashq. O'qing va ko'chiring.
i va u unlilarining tagiga chizing.

Toychoq



Toychog'im uchqur, ziyrak,
To'rt oyog'i g'ildirak.
Sindirmasang bas, unga
Na o't-u, na suv kerak.

Anvar Obidjon

■ i va u unlilarining talaffuzi va yozilishiga e'tibor bering.

18-mashq. Tushirib qoldirilgan unlilarni qo'yib, hayvonlar nomini guruhlab yozing.



kuch . k



mush . k



echk .



qo'z . choq



xo't . k



s . gir



t . ychoq



b . zoq

Yozgan so'zlaringizni lug'atdan tekshiring. Unlilarning aytilishi va yozilishidagi farqni ayting.



19-mashq. Ikkinchi bo'g'inida i aytilib, u yoziladigan so'zlarni ayting va yozing.



--	--	--	--



--	--	--	--



--	--	--	--	--	--



--	--	--	--



--	--	--	--



--	--	--	--

■ **i** aytilib, **u** yoziladigan unlilar tagiga chizing.



20-mashq. Unli harflarni yozing.

Aa	Oo	O'o'	Uu	Ii	Ee
----	----	------	----	----	----

■ Bir so'zning ikkita bo'g'inida ham **a**, **o**, **u** unlilari yoziladigan so'zlar toping.

21-mashq. O'qing. Unli tovushlarni ayting. Maqollarda qaysi unli ishtirok etmagan?

1. Bilim — davlatdan qimmat.
2. Olim bo'lsang, olam seniki.

■ Ko'chiring. Unlilar tagiga chizing.


■ **Davlat** so'zi yana qanday ma'noni bildiradi?

Savollarga ogʻzaki javob bering:

1. Tilimizda nechta unli tovush bor?
Unli tovushni ifodalovchi harflar nechta?
2. Unli tovushlar qanday aytiladi?



22-mashq. Harflardan foydalanib, soʻzlar tuzing va yozing.



Undosh tovushlar va harflar



23-mashq. Sheʼrni oʻqing. Koʻchiring. Undoshlar tagiga chizing.


Yongʻoq

Kuz kelganda pishaman,
Qoqsang, tap-tap tushaman.
Yogʻli qilib noningni,
Tozalayman qoningni.



Ibrohim Donish

24-mashq. Rasmdagi sabzavotlarning nomini yozing, yozganingizni lugʻatdan tekshiring.



● Sabzavot nomlarini tahlil qiling.

Tahlil namunasi:

Karam – 5 ta tovush, 5 ta harf, 3 ta undosh, 2 ta unli.



25-mashq. Topishmoqni oʻqing, javobini toping.

Oʻzi ekin, gul taqar,
Pishgach, yesang, xoʻp yoqar.
Kun doim unga boqar,
U doim kunga boqar.

● Koʻchiring. Undoshlarning tagiga chizing.



26-mashq. Tagiga chizilgan harflarni yozma shaklda yozing.

Bb, Dd, Ff, Gg, Hh, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Vv, Xx, Yy, Zz, G'g', Sh sh, Ch ch, Ng ng.

■ Bu harflar qanday tovushlarni ifodalaydi? **j** harfi nechta tovushni ifodalaydi? Tilimizda nechta undosh tovush bor?

27-mashq. Maqollarni o'qing.

1. Xushxulqlik – jamol,
Kamtarlik – kamol.
2. Bilmaganni bildim dema,
Qilmaganni qildim dema.
3. Hurmating – savlating,
Mehnating – davlating.

■ Maqollarni ko'chiring. Bir undosh tovush bilan ma'nosi o'zgargan so'zni toping.

O'zbek tilida 24 ta undosh to-
vush bor. Ular 23 ta harf bilan
ifodalanadi.



28-mashq. Matnni o'qing. Matn-
dan nimalarni bilib oldingiz?

Ruxsat so'rash odobi

Darsda o'qituvchingizdan biror nar-
sani so'rashni istasangiz, qo'lingizni
ko'taring. O'qituvchi ruxsat bersa,
o'rningizdan turing va savolingizni
ayting.

■ Ko'chiring. Undoshlarning tagiga
chizing.



29-mashq. O'qing. So'zlarda **x**
va **h** harflarining o'qilishini ayting.

Xiva, Buxoro, Xorazm, mehmon,
hovli, Jizzax, hammom, mehribon.

■ Ko'chiring. **x** va **h** harfli so'zlarni
ustun shaklida yozing.

30-mashq. Xat yozishni o'rganing. **x** va **h** harfli so'zlarning o'qi-lishi va yozilishini yodingizda tuting.

Assalomu alaykum, Xolida xola! Tuzalib qoldingizmi? Xat orqali sog'lig'ingizni ma'lum qiling.

Uzr, holingizdan xabar ololmadim. Xayr. Jiyaningiz Hakima.

2020-yil 3-fevral

🟡 Namunaga qarab yaqin kishingizga xat yozing.



31-mashq. Nuqtalar o'rniga **x** yoki **h** harfidan mosini qo'yib yozing.

Ya.malak, .ona, .ola, ta.ta, .irmon, mi., .olva, ba.o, ja.on, .avo.

🟡 Yozgan so'zlaringizni lug'atdan tekshiring.



Harflar birikmasi

32-mashq. O'qing. She'r nima haqida ekanini ayting.

— Shamol, qayga chopyapsan,
Seni quvlarmi birov?

— Axir, qancha ishim bor,
Bo'lmas bormasam darrov.


Rauf Tolib

■ She'ni ko'chiring. Harflar birik-
masining tagiga chizing. Harflar
birikmasi nechta tovushni ifo-
dalayapti?

🎵 **33-mashq.** She'ni o'qing. Ajratib
ko'rsatilgan so'zlarni tahlil qiling.

Til topishdi

Uchrashdilar — **Isming** nima?
G'oz va O'rdak. — Menikimi?



G'oq-g'oq-g'oq.
Seniki-chi?
— G'o-g'o-g'o.

Bir zumda til
Topishdi.
O'ynagani
Chopishdi.

Qambar Ota

Tahlil namunasi:

Chopishdi – 7 ta tovush, 7 ta harf, shundan 2 tasi harflar birikmasi, 4 ta undosh (ch, p, sh, d), 3 ta unli (o, i, i).



34-mashq. O'qing. Ko'chiring.

Shahrisabz

O'quvchilar Shahrisabzga bordilar. Shaharning chiroyli, tarixiy joylarini tomosha qildilar. Ular sayohatdan xursand bo'lib qaytdilar.

● Harflar birikmasining tagiga chizing.



35-mashq. Matnni o'qing. Sizningcha, oldin nima bo'lgan?

Ona qarg'a

...Ona qarg'a nobud bo'lgan bolasi oldiga asta qo'ndi. Boshini egganicha uzoq turdi. Keyin o'zi ham yiqildi. U qaytib turmadi.

Durbek Mahmudovdan

■ Ko'chiring. Aytilishi yozilishidan farq qilgan undoshlarning tagiga chizing.

36-mashq. Topishmoqlarni o'qing va javobini ayting.

1. Yer ostida oltin qoziq.



2. Qoziq ustida qor turmas.

3. Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar.



sh		m	o	l
----	--	---	---	---

t	u	x		m
---	---	---	--	---

s	a		z	i
---	---	--	---	---

Bo'sh katakchalarda qaysi tovush yashiringan? Harflar birikmasi qatnashgan topishmoqni javobi bilan yozing va javobini tahlil qiling.



37-mashq. So'zlarni bo'g'inga bo'lib yozing. Harflar birikmasining tagiga chizing.

Chotqol, Chirchiq, cho'mich, shamol, boshqoq, singil, bodring, tong.

ng harflar birikmasi ishtirok etgan so'zlarni qatnashtirib, gap tuzing va yozing.



38-mashq. Bo'sh kataklarga q yoki g harflaridan mosini qo'yib o'qing.

q	a	y	m	o		q	i	sh	l	o		t	o	
p	i	sh	l	o		q	u	l	o		d	o		
m	a		s	a	d	t	a		l	i	d		o	z

Tuzgan so'zlaringizni yozing. Qaysi so'zlarda q undoshi g tarzda

talaffuz qilinadi? Shu soʻzlarning yozilishini izohlang.

39-mashq. Ifodali oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni koʻchiring. Undoshlarning tagiga chizing.

Top, oʻrtoq!

Shu tik turgan joyingda
Shimol-u sharq, gʻarb qayoq?
Top, oʻrtoq!

Oymi, quyosh yo **yulduz**
Qaysi biri yaltiroq?
Top, oʻrtoq!

Obid Rasul

Savollarga ogʻzaki javob bering:

1. Oʻzbek tilida nechta undosh tovush bor?
2. Oʻzbek alifbosida undosh tovushlarni ifodalagan nechta harf bor?



40-mashq. Nuqtalar oʻrniga tegishli undoshni qoʻyib oʻqing.



Yaxshi bola

Sevgan do'sti — **kito.-ofto.**,
Qoidasi axloq-**odo.**
Maqtanishning hech o'zi yo'q,
Gaplarida «sen» so'zi yo'q.

Obid Rasul

■ Ko'chiring. Ajratilgan so'zlarning talaffuzi va yozilishidagi farqni ayting.




41-mashq. O'qing. So'zlarning talaffuzi va yozilishini taqqoslang.

tug — tuk	qarz — qars
yod — yot	tub — tup
ganj — ganch	uflamoq — uvlamoq

■ Ko'chiring. So'zning ma'nosini o'zgartirayotgan harfning tagiga chizing.

■ Berilgan harflar qaysi tovushni ifodalaydi? Ular so'zda qaysi tovush kabi aytilishi mumkin? Bo'sh kataklarga shu tovushni ifodalovchi harfni yozing.



42-mashq. Soʻzlarni oʻqing. Kat-
takchalarga **b** va **d** undoshlaridan
mosini qoʻyib koʻchiring.

choysha ☐
hiso ☐
rubo ☐

☐ ☐ ☐ ☒ i

Umi ☐ ☐ ☐

Ozo ☐ ☐ ☐

Xurshi ☐ ☐ ☐

a

Soʻz oxiridagi unli harfni tushirib oʻqing. Oxirgi tovush qanday talaffuz qilinyapti?



43-mashq. Soʻzlarning aytilishi va yozilishini taqqoslang. Qaysi tovushlarning aytilishi bilan yozilishida farq bor?

1. Kitob, oftob, savob, javob, janub. 2. Ozod, obod, avlod, ajdod. 3. Mavj, avj, muhtoj. 4. Shavkat, shovqin.

● Ko'chiring. **b**, **d**, **j** va **v** undosh-
larining tagiga chizing.





44-mashq. Nuqtalar o'rniga **b – p**,
d – t, **g – k**, **z – s**, **j – sh**, **v – f**
undoshlaridan mosini qo'yib, so'z-
larni yozing.

Davla., ozo., tu., tarvu., hiso.,
ruba., bar., Zayna., kopto., Abbo.,
talaffu., a.tobus, a.tomat, gara..

45-mashq. Nuqtalar o'rniga za-
rur harflarni qo'yib o'qing.

Tanishaylik, men kito.,
Asl bilimlarga kon.
Boylik beray behiso.,
Bo'lsang agar qadrdon.

Qudrat Hikmat

■ **Kitob**, **bilim** so'zlarini tahlil qiling.



46-mashq. O'qing. Topishmoq-
ning javobini toping.

Dur shodalar uzilgandek
Ko'kdan tushar **patirlab**.
Yer yuzida turar andak
Suv bo'lguncha **yaltirab**.

D		
---	--	--

Ziyod Komilov

■ Ajratilgan soʻzlarni koʻchiring. Aytilishi yozilishiga mos kelmagan undoshlarning tagiga chizing.



47-mashq. Rasmga qarab «Ona tabiat» mavzusida ogʻzaki hikoya tuzing. Hikoyangizda **j** tovushli soʻzlardan foydalaning.



Savollarga javob yozing:

1. Rasmda qaysi hayvonlar tasvirlangan? Ular qayerlarda yashaydi?
2. Hayvonlar jilgʻa yoqasiga nima uchun kelishdi?

■ Tuzgan hikoyangizdagi hayvonlar

nomini o'qing. **j** harfi yana qaysi tovushni ifodalaydi?

Jilg'a – tog'dan oqib tushadigan kichik soy.

48-mashq. So'zlarni o'qing. **j** harfining o'qilishiga e'tibor bering.

Jamol, jur'at, jiyda, ajdar, ijozat, ijro, jiblabibon, jirafa.

■ Ko'chiring. O'zingiz ham **j** harfi qatnashgan so'zlardan topib yozing.

 **49-mashq.** Bolalarga **j** tovushi qatnashgan ism qo'ying. Savollarga javob yozing.

1. Kimlar jurnal o'qiyapti?
2. Jurnalda nima tasvirlangan?



■ **Jurnal, jirafa** so'zlarida **j** harfi qanday talaffuz qilinadi?



Tutuq (') belgisi



50-mashq. Tutuq belgili soʻzlar-
ning aytilishi va yozilishiga diq-
qat qiling.

1. Rahmat olgan omondir,
La'nat olgan yomondir.
2. Va'daga vafo — mardning ishi.

■ Ko'chiring. Maqollarning ma'nosini
tushuntiring.

51-mashq. Soʻzlarni tutuq bel-
gisiga rioya qilib o'qing.

da'vo — davo	she'r — sher
sur'at — surat	ta'na — tana

■ Ko'chiring. Soʻzlarning ma'nosini
izohlang.



52-mashq. Soʻzlarni tutuq bel-
gisiga rioya qilib o'qing.

Tal'at, va'da, jur'at, san'at, Ma'-
mura, A'zam, she'r, sa'va.

■ Ko'chiring. Qaysi so'zlarda tutuq belgisi tushirilsa, ma'no o'zgaradi?



53-mashq. Tez va ko'p aytishga tayyorlaning.


Sa'va saharda sadada sayradi.

Tal'at tandir tagidan tanga topdi.

■ Sa'va, Tal'at so'zlaridagi tutuq belgisini tushirib o'qing va ma'no-sidagi farqni ayting. Sa'va so'zini tahlil qiling.

54-mashq. Topishmoq nima haqi-da?

Vaznidan og'ir yukni
Tishlab tortar uyiga.
Oshiyoni yer qa'rida,
Qish ozig'i barida.



■ Qa'ri va qari so'zlarini qat-nashtirib, ikkita gap tuzib yozing.



55-mashq. Tutuq belgili o'nta ism yozing.



Alifbo



56-mashq.

Alifbe va alifbo

Siz «Alifbe» kitobini o'qidingiz. U orqali tovush va harflarni bilib oldingiz.

Alifbomizda 29 ta harf bor. Ulardan 3 tasi harflar birikmasi. 1 ta tutuq belgisi bor.

ALIFBO

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O' o'	G' g'	Sh sh	Ch ch	Ng ng	

Alifboda harflar tartib bilan joylashadi.

Alifboni yozma shaklda yozing va uni yod oling.

57-mashq. Nuqtalar o‘rniga zarur harflarni qo‘yib, gullar nomini o‘qing.



karn.ygul



chin.igul



gulsa.sar

■ Gul nomlarini alifbo tartibida yozing. Gul nomlarini qatnashtirib, bitta gap tuzing va yozing.

58-mashq. So‘zlarni alifbo tartibida yozing. Yonma-yon kelgan bir xil undoshlarning tagiga chizing.

Naqqosh, rassom, varrak, novvot, izzat, kassa, mitti.

■ So‘zlarning yozilishini yodingizda tuting. **Naqqosh**, **novvot** so‘zlarini tahlil qiling.



a	l		f	b		n	i		M		n								
									y		d		b		l		m		n
							S		z	-	ch		?						

Savol va topshiriqlar:

1. Soʻz oxirida kelgan qaysi undoshlar talaffuzda oʻzgaradi? Nima uchun?
2. Alifboni yoddan ayting.



62-mashq. Soʻzlarni oʻqing. Ularni alifbo tartibida yozing.

Yoʻlbars, timsoh, zarra, kurak, supurgi, arra, kakku, qimmat.

■ Shu soʻzlardan qatnashtirib, bitta gap tuzing va yozing.



Boʻgʻin



63-mashq. Soʻzlarni boʻgʻinlarga boʻlib oʻqing va namunadagidek yozing.

Namuna: **Op-poq**, ...

Sovuq, chana, yaxmalak, qoʻlqop, quyosh, musaffo, havo.

■ **Musaffo** soʻzining maʼnosini ayting.

Soʻz boʻgʻinlarga boʻlinadi.

64-mashq. Matnni oʻqing. Ajratilgan soʻzlarni boʻgʻinlarga boʻlib yozing.

Namuna: **i-ni-dan**, ...



Hasan va qaldirgʻoch

Hasan qaldirgʻochning **inidan** uchtoʻrtta **tuxum** olib tushdi.

— Tuxumlarni joyiga qoʻy, onasi qargʻaydi, — dedi **buvisi**.

Hasan tuxumlarni joyiga qoʻydi.

■ Hikoyani davom ettiring. Soʻz nimalarga boʻlinadi?



65-mashq. She'ni o'qing. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lib, chiziqcha bilan yozing.

Namuna: **shosh-may**, ...

Senimi, shoshmay tur!

— Bo'ri quyinni tutmay,
Nega paysalga solar?

— Qiziqsan, tutib yesa,
Multfilm tugab qolar.


Rauf Tolib

■ So'zlar necha bo'g'inli bo'ladi?



66-mashq. O'qing. Topishmoqning javobini toping.

Suvga yoysa bo'ladi,
So'ng o'ljaga to'ladi.



■ Topishmoqdagi so'zlarni bo'g'inlarga bo'ling. Har bir so'zda nechta unli tovush va nechta bo'g'in bor?

Unli tovushlar bo'g'in hosil qiladi.

67-mashq. Matnni o'qing. Ajratilgan so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib yozing.

Do'landa



Do'landa — tog' o'simligi. Do'landa tog'li joylarda, **shag'alli** qiyaliklarda **o'sadi**. Respublikamizda do'landa-ning **beshta** turi bor. **Uning mevasi** juda ko'p kasalliklarga davodir.

Do'landa haqida nimalarni bilib oldingiz? **Davodir** so'zini bo'g'intovush tarkibiga ko'ra tahlil qiling.



68-mashq. O'qing. Matn nima haqida ekan?



Xonqizi qo'ng'izini ko'rganmisiz?

Xonqizi qo'ng'izining **rangi qizil**, **ustida yetti dona xoli** bor. Bu rang umrining **oxirigacha** o'zgarmaydi.

Ajratilgan so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib yozing.



So'zlarni bo'g'inlab ko'chirish



69-mashq. O'qing. So'zlarning bo'g'inlarga bo'linishini va bo'g'inlab ko'chirilishini kuzating.

Bo'g'inlarga bo'lish:

Mu-qad-das, sar-kar-da, A-zim-jon,
o-na-xon, Chir-chiq.

Bo'g'inlab ko'chirish:

Muqad-das, Mu-qaddas, sar-karda,
sarkar-da, Azim-jon, ona-xon.

■ O'ylang. So'zlarning bir satrga sig'may qolgan qismi ikkinchi satrga qanday ko'chiriladi?

So'zlar bir satrdan ikkinchi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi.

70-mashq. So'zlarni ko'chirish qoidasiga moslab, bo'g'inlarga bo'lib yozing.

Hilola, olma, sakkiz, o'quvchi, kitob,
ushoq, sur'at, dangal, changalzor.

■ O'ylang. So'zlarni bo'g'inga bo'lish bilan bo'g'inlab ko'chirish o'rtasida qanday farq bor?

71-mashq. So'zlarni bo'g'inlab o'qing. Bir satrdan ikkinchi satrga bo'g'inlab ko'chirib bo'lmaydigan so'zlarni yozing.

Qorbobo, G'ayrat, tennis, a'lo, odob, eshik, o'roq, o'rtoq, odam, opa, ozoda, asal, e'lon, uka.

■ O'ylang. Siz yozgan so'zlarni nima uchun bir satrdan ikkinchi satrga bo'g'inlab ko'chirib bo'lmaydi?



72-mashq. Matnni o'qing.

Paxtadan ip yigiriladi. Ipdan **gazlama** to'qiladi. **O'zbekiston** paxtasi ko'pgina **xorijiy ellarga** sotiladi.

■ Ko'chiring. Ajratilgan so'zlarni ko'chirish qoidasiga ko'ra bo'g'inlarga bo'lib yozing.



73-mashq. Soʻzlardagi unli to-
vushlarning sonini ayting. Berilgan
soʻzlar nima uchun bir satrdan ikkin-
chi satrga boʻgʻinlab koʻchirilmaydi?

Asr, qasr, harf, sharf, mart, mard,
qadr, goʻsht.

■ Soʻzlarning yozilishini yodingizda
tuting.

74-mashq. Soʻzlarni boʻgʻinlarga
boʻlib oʻqing.

Jiblajibon



Jiblajibon — foydali qush. U **ba-
horda** oʻlkamizga **birinchi** boʻlib
uchib keladi. Jiblajibon mayda **ha-
sharotlar** bilan oziqlanadi.

■ Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni koʻ-
chirish qoidasiga koʻra boʻgʻinlarga
boʻlib yozing.

75-mashq. Maqolni o'qing, ma'-nosini tushuntiring.

Kattani hurmat qil,
Kichikni izzat qil.

■ Ko'chiring. Ajratilgan so'zlarni ko'chirish qoidasiga ko'ra bo'g'inlarga bo'lib yozing.



76-mashq. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lib o'qing.

Ra'no, ma'no, jur'at, sa'va, da'vo.

■ O'ylang. Bu so'zlar keyingi satrga qanday ko'chiriladi? So'zlarni ko'chirish qoidasiga ko'ra bo'g'inlarga bo'lib yozing.



77-mashq. She'rni o'qing.

Anjir

Kecha-**kunduz**
Uxlamay,
Meva tugdim
Gullamay.

Mevam o'zi
Gulchadir,
Tillarangli
Kulchadir.



Anvar Obidjon

■ Ajratilgan soʻzlarni boʻgʻinlarga boʻling.

78-mashq. Topishmoqning javobini toping.

Yoniga kelsa bolasi,
Taʼzim qilar onasi.



■ Soʻzlarni koʻchirish qoidasiga koʻra boʻgʻinlarga boʻlib, topishmoqni yozing.

79-mashq. Sheʼrni oʻqing. Yonma-yon kelgan bir xil undoshli soʻzlarni tahlil qiling.

Paxtaginam loʻppicha,
Chanoqlari doʻppicha.
Oʻzi oppoq
Bir qarang,
Bolachasi
Jigarrang.

Anvar Obidjon

Tahlil namunasi:

1. **Loʻppicha:** loʻp-pi-cha (3 ta boʻgʻin).

2. 7 ta tovush, 7 ta harf. Shundan 1 tasi harflar birikmasi.

3. Undosh tovush: l, p, p, ch (4 ta).

4. Unli tovush: o', i, a (3 ta).

Savollarga og'zaki javob bering:

1. So'zlar nimalarga bo'linadi?
2. Qaysi tovushlar bo'g'in hosil qiladi?
3. So'zlar bir satrdan ikkinchi satrga qanday ko'chiriladi?



80-mashq.

Rasm yordamida sport o'yinlariga oid so'zlarning bo'g'inlarini toping.



So'zlarni bo'g'inlarga bo'lib yozing.



SO‘Z


So‘zning ma‘nosi



81-mashq. Rasmdagi shaxs va jonivorlarning nomini ayting. Ularga so‘roq bering.



uchadi
suzadi
yuguradi
yozyapti



■ Shaxs va jonivorlarning harakatini bildirgan so‘zlarni o‘qing. Ularga so‘roq bering. So‘zlar nimasiga ko‘ra farqlanyapti?

82-mashq. Ajratilgan so‘zlar qanday ma‘no bildirayotganini ayting.

Sariq gul, **shirin** olma, **aqli** qiz, **beshta** nok.

So‘zlar **shaxs**, **narsa**, **harakat**, **belgi**, **miqdor** ma‘nolarini bildiradi.

83-mashq. O‘qing. So‘zlarning qanday ma’no bildirayotganini ayting.

Qizil, ko‘za, o‘n, soch, Gulsara, kuldi, katta, yetti, bodom, ochildi, shirin, besh, uxladi, ishchi, Durdona.

■ So‘zlarni so‘roqlar yordamida guruhlab yozing.

Kim?	Nima?	Nima qildi?	Qanday?	Necha?



84-mashq. So‘zlarga so‘roq bering. Ularning qanday ma’no bildirayotganini ayting.

Muyassar, baland, shifokor, aqlli, oy, o‘qidi, so‘zladi.

■ So‘zlarni so‘roqlar asosida guruhlab yozing.

Kim?	Nima?	Qanday?	Nima qildi?



85-mashq. Juft holda berilgan soʻzlarning maʼnosini izohlang.

Kul — koʻl, qol — qoʻl, qoʻy — toʻy, bil — bol.

■ Soʻzlarni soʻroqlar asosida guruhlab yozing. Soʻz maʼnosini oʻzgartirayotgan tovushni ayting.

86-mashq. Rasmni kuzating. Bolalarga ism qoʻying.



Savollarga rasm asosida javob bering:

1. Qaysi fasl boshlandi?
2. Kimlar sayrga chiqdi?
3. Bolalar qirda nima qildilar?

■ Javobingizni yozing.



87-mashq. Soʻzlarni oʻqing.

Muallim, kutubxonachi, quruvchilar, mehmonlar, shoir, qoʻshnilar.

■ Avval **kim?**, keyin **kimlar?** soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlarni yozing.



88-mashq. Koʻchiring.



Bahor keldi. Dehqon dala ishlarini boshladi.

■ **Kim?** soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzning tagiga toʻgʻri chiziq va **nima qildi?** soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlarning tagiga ikki chiziq chizing.

89-mashq. Soʻroqlarga mos soʻzni qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

(Nima?) tindi. Chumoli (nima qildi?). (Qanday?) qushlar navosi boshlandi.

Foydalanish uchun soʻzlar: **yomgʻir**, **oʻrmaladi**, **sayroqi**.

■ Tuzgan gaplaringizdagi har bir soʻz nimani bildiriyapti?



90-mashq. Soʻroqlarga mos soʻzni qoʻyib yozing.

Quyosh (nima qildi?). (Kim?) bogʻga bordi. U bogʻda (qanday?) daraxt oʻtqazdi.

Foydalanish uchun soʻzlar: **chiqdi**, **bogʻbon**, **mevali**.



Shaxs va narsaning nomini bildirgan soʻzlar



91-mashq. Sheʼrni ifodali oʻqing.

Ulugʻ Temur bobomiz
Sevgan, sigʻingan Vatan!
Bobur Mirzo doimo
Qoʻmsab sogʻingan Vatan!

Rauf Tolib

■ Koʻchiring. **Kim?** soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlarning tagiga toʻgʻri chiziq chizing.

92-mashq. Soʻzlarni oʻqing, ular-
ga soʻroq bering.


Qush, gul, sabzavot, sabzi, turna,
qaldirgʻoch, binafsha, chuchmoma,
piyoz.

■ **Qush, gul, sabzavot** nomlarini
aniqlang va guruhlab yozing.

Shaxsning nomini bildirgan soʻz-
lar **kim?**, narsaning nomini bildir-
gan soʻzlar **nima?** soʻrogʻiga javob
boʻladi.



93-mashq. Rasmdagi shaxslar-
ning kasbini ayting va yozing.
Ularga soʻroq bering.



94-mashq. Nima? va nimalar?, kim? va kimlar? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni topib yozing.

Qumri xola doshqozonda sumalak pishirdi. Odil, Nargiza Qumri xolaga yordamlashdi. Qumri xola bolalarga ertaklar va qo'shiqlar aytib berdi. Bolalar ko'p narsalarni bilib olishdi.

Shaxslarni bildirgan so'zlar **kimlar?**, narsalarni bildirgan so'zlar **nimalar?** so'roqlariga javob bo'ladi.

95-mashq. O'qing. Avval **kim?**, so'ng **nima?**, **nimalar?** so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni ko'chiring.

Amir Temur bobomiz bog'lar yaratgan. Bog'larning ichiga saroy, hovuz, favvoralar qurdirgan. U yerlarga mevali daraxtlar, gullar ektirgan.

Bog'da to'vus va ohular sayr qilib yurgan.

Xurshid Davrondan



96-mashq. O'qing. So'zlarni so'-roqlariga ko'ra guruhlab ko'chiring.

Hovli, o'yinchoqlar, Halima, daraxt, mehmon, gilam, zinapoya, ayvon, ustunlar, mezbolar, Mukambar, chavandoz, tennis, o'quvchilar.

■ Qaysi so'zlarning yozilishini bilib oldingiz?



Kishilar ismi va familiyasining bosh harf bilan yozilishi



97-mashq. So'zlarning yozilishini taqqoslang. So'zlar nima uchun kichik va bosh harf bilan yozilgan?

bobo	Nurmat	Husanov
buvi	Sharofat	Majidova
ota	Hikmat	Ne'matov
ona	Xosiyat	Nurmatova
aka	Ne'mat	Hikmatov
singil	Dilafro'z	Yo'ldosheva

■ Siz oila a'zolaringizning ismi va familiyasini yozing.

Kishilarning ismi va familiyasi bosh harf bilan yoziladi.

98-mashq. Ismlarga familiya qo'shib, matnni o'qing. Mazmunini hikoya qiling.

Opa-singillar

Nilufar, Xurshida va Xolida _____ opa-singillar. Ularning onasi Saodat _____ mohir chevar. Qizlar ham onalaridan bichish-tikishni o'rgatishgan.

■ Ismlarning imlosini yodda tuting.



99-mashq. Rasmni kuzating. Bolalarga ism qo'ying.



Savollarga javob yozing:

1. Kim kutubxonaga bordi?
2. Kutubxonada kimlar bor edi?
3. Kim Ma'murga kitob berdi?

■ Yozgan gaplaringizdagi shaxs va narsa nomini bildirgan so'zlarning tagiga chizing.



100-mashq. O'qituvchi va o'quvchilarga ism va familiya qo'ying.



Savollarga javob yozing:

1. Kim o'quvchilarni o'qityapti?
2. Kimlar o'qituvchining gapini tinglayapti?

■ Yozgan gaplaringizdagi ism va familiyani bildirgan soʻzlarning tagiga chizing.

101-mashq. Ifodali oʻqing. Sheʼr kimlar haqida ekanini ayting.

Isib ketyapman

Davron dedi Omonga:

— Ketyapmiz qay tomonga?

— Janubga, — dedi Omon.

— Sen buni bilding qandoq?

— Axir, yoʻl yurgan sari

Isib ketyapman, oʻrtoq!

Rauf Tolib

■ Bolalar ismi nima uchun bosh harf bilan yozilgan?



102-mashq. Oʻqing. Tez aytishni oʻrganing.

1. Gʻulom sholgʻom shoʻrvani ichib sogʻlom boʻldi.

2. Toʻlqin topishmoqni toʻgʻri topdi.

■ Ko'chiring. Bolalar ismini bildirgan so'zlarning tagiga bitta to'g'ri chiziq chizing. Ularga so'roq bering.



Joylarga atab qo'yilgan nomlarning bosh harf bilan yozilishi



103-mashq. Rasmni kuzating. Unda qaysi shahar tasvirlanganini ayting.



Toshkent — O'zbekistonning poytaxti. Toshkentning yerosti shahar-

chasi metro deyiladi. Metroning **Chilonzor, O'zbekiston, Yunusobod** yo'nalishlarida poyezdlar qatnaydi.

Toshkentda **Fransiya, Germaniya, Rossiya, Koreya, Yaponiya** kabi ko'plab xorijiy davlatlarning elchixonalari joylashgan.

■ Joy nomlari qanday harf bilan yozilgan? Nima uchun?

104-mashq. O'qing. So'roqlar yordamida joy nomlari va kishi ismlarini aniqlang.

Ko'hna Urganch Xorazm davlatining poytaxti edi. Uni Chingizxon qo'shinlari vayron etdi. Jaloliddin Manguberdi Vatan ozodligi uchun kurashdi.

■ Ko'chiring. Joy nomlari va kishi ismlarining tagiga chizing. Matndan nimalarni bilib oldingiz?

■ Siz **vayron etdi** deganda nimani tushunasiz?

Joylarga atab qo'yilgan nomlar bosh harf bilan yoziladi.



105-mashq. O'qing. Matnda kimning yoshligi bayon qilingan?

Mening bolalik yillarim Farg'ona vodiysining Yaypan, Buvayda, Yulg'unzor, Oqqo'rg'on degan qishloqlarida o'tgan. O'tmish hayotimdan esimda qolganlarini «O'tmishdan ertaklar» asarimda yozdim.

Abdulla Qahhordan

■ Joy nomlarini ko'chiring. Ular nima uchun bosh harf bilan yozilgan? Ularga so'roq bering.



106-mashq. Matnni o'qing. Joy nomlarini ko'chiring.

Qarshi

Qarshi — qadimiy va navqiron shahar. Qarshi shahridan temiryo'l o'tadi. Temiryo'l Qarshini Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Ter-miz shaharlari bilan bog'laydi.

■ Joy nomlarining imlosini tushuntir-ing. Ularga so'roq bering. Ketma-ket kelgan undoshlarning tagiga chizing.

■ **Navqiron** so'zining ma'nosini bila-sizmi?

107-mashq. O'zingiz bilgan sha-har, qishloq, ko'cha nomlarini yozing.

Namuna:

Shaharlar: **Toshkent**, _____, _____, _____, ...

Qishloqlar: **Yakkatol**, _____, _____, _____, ...

Ko'chalar: **Qatortol**, _____, _____, _____, ...



108-mashq. Ko'chiring. Joy nomlarining tagiga chizing.

Buxoro

Buxoro — qadimiy va navqiron shahar. Shaharda Labihovuz, Ko'kal-dosh kabi yodgorliklar bor. Sayohatchilar Shohrud arig'i bo'yida sayr qiladilar.

B. Saidomonovdan



Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlarning bosh harf bilan yozilishi

109-mashq. Har bir hayvon nomini unga atab qo'yilgan nom bilan yozing.

mushuk
it
ot
sigir



Olapar, Qoplon
Boychibor
Qashqa, Govmish
Popuk, Momiq

 Yozganlaringizni tekshiring. Hayvon nomlari nima uchun bosh harf bilan yozilgan?

110-mashq. Birinchi ustunga hayvon nomlarini, ikkinchi ustunga ularga atab qo'yilgan nomlarni yozing.



Baroq
To'rtko'z
Qorabayir
Targ'il



Ikkinchi ustundagi so'zlarni nima uchun bosh harf bilan yozdingiz?

Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar bosh harf bilan yoziladi.



111-mashq. Berilgan so'zlardan bir-biriga mosini tanlab, gaplar tuzing va yozing. Gaplarni bosh harf bilan boshlang.

Olapar
Mosh
Boychibor

kishnaydi
vovullaydi
miyovlaydi

■ Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlarning tagiga chizing.



112-mashq. Rasmdagi narsalarning nomini ayting va yozing.



■ Bu so'zlar qaysi so'roqqa javob bo'ladi?

113-mashq. Kishilarning ismini va joy nomlarini guruhlab yozing.

Ko'hna Turon farzandlari

Men Shiroqman,
Vatan uchun jon fido qilgan.
Men — To'maris,
Vatan uchun dilbandidan kechgan.

Men — Najmiddin Kubro,
Xorazm elini og'ir paytda
Tashlab ketmagan.

● **Dilbandi** so'zining ma'nosini bilasizmi?

Savollarga og'zaki javob bering:

1. So'zlar nimalarga nom bo'ladi?
2. Kishilarning ismi va familiyasi qaysi so'roqqa javob bo'ladi?
3. **Nima?** so'rog'i qaysi so'zlarga beriladi?
4. Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar qanday harf bilan yoziladi?



114-mashq.

Chiziqlar o'rniga joy nomlarini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Men _____ ko'chasida yashayman. O'rtog'im _____ ko'chasida yashaydi. Bizning _____ nomli mahallamiz juda obod.



Shaxs va narsaning harakatini bildirgan soʻzlar



115-mashq. Nuqtalar oʻrniga **kim?** soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻz qoʻyib yozing.

... oʻqitadi, ... oʻqiydi, ... davolaydi, ... oʻynaydi.

■ Harakatni bildirgan soʻzlarning tagiga ikki toʻgʻri chiziq chizing.

Namuna: Qizcha oʻynaydi.

116-mashq. Bolalar nima qilayotganini bir soʻz bilan ayting. Shu soʻzlarga soʻroq bering.



■ Bolalarga ism qo'yib, harakatni bildirgan so'zlar bilan yozing.

Shaxs va narsaning harakatini bildirgan so'zlar **nima qildi?**, **nima qilyapti?**, **nima qiladi?** so'roqlariga javob bo'ladi.



117-mashq. O'qing. **Nima qildi?**, **nima qilyapti?**, **nima qiladi?** so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni topib, guruhlab yozing.

Olma, anor, qochdi, qizil, qo'ndi, ishlaydi, uzyapti, behi, chiqyapti, deraza, kelyapti, oladi, qoladi, chiqdi.

■ Qaysi so'zlarning imlosini bilib oldingiz?



118-mashq. She'rda qaysi fasl tasvirlangan?

Tog'da nega
Eridi qor?



Nega loyqa
Oqar anhor?
Nega gullar
Kuldi takror?
Chunki yana
Keldi _____.

■ Chiziq o'rniga fasl nomini qo'ying.
Harakatni bildirgan so'zlarni toping.

119-mashq. She'ni o'qing. So'-
roqlar yordamida harakatni bildirgan
so'zlarni toping.

Yaproqlar

Zumrad, yashil
yaproqlar
Shovullaydi
bog'larda.
Soyasiga
chorlaydi
Kun qizigan
chog'larda.

Bizlar uchun
chang yutib,
Tozalaydi havoni.
Ko'zimizga
yashnatib
Ko'rsatadi
dunyoni.

Qambar Ota

■ **Yaproqlar, chorlaydi** soʻzlarini qaysi soʻzlar bilan almashtirish mumkin?

■ **Chang yutib** deganda nimani tushunasiz?

120-mashq. Berilgan soʻzlardan foydalanib, savollarga javob yozing. Harakatni bildirgan soʻzlar tagiga ikki toʻgʻri chiziq chizing.

Namuna: **Bola** **kuladi**, **yuradi**, **oʻynaydi**.

Kim kuladi, yuradi, oʻynaydi?

Nima oqadi, qaynaydi, soviydi?

Nima sayraydi, uchadi?

Nima teriladi, yigiriladi?

Nima yuguradi, chopadi, kishnaydi?

Foydalanish uchun soʻzlar: **bola**, **qaldirgʻoch**, **suv**, **ot**, **paxta**.



121-mashq. Oʻqing. Harakatni bildirgan soʻzlarni soʻroqlar yordamida toping.

Bahor keldi. Bogʻlarda gullar ochildi. Ariqlarda suvlar shildirab oqdi.

Jamalak sochli Zumrad bog'ga kirdi.
U olxo'ridan dovuchcha so'radi.

Olxo'ri dedi: «Tez kunlarda pi-
shaman, yerga tap-tap tushaman.
O'shanda kel, qizaloq...»

Mirmuhsindan

■ Harakatni bildirgan so'zlarning ta-
giga ikki to'g'ri chiziq chizing.



122-mashq. Narsaning harakatini
bildirgan so'zlarni o'qing.

g'aramlaydi



o'radi

yanchadi

yig'adi

■ Kombayn bajaradigan ishlarni tar-
tib bilan ayting.

123-mashq. Soʻzlarni oʻqing. Ular nimani bildiradi?

Toʻquvchi, kapalak, baliq, suv.

■ Shaxs va narsa nomlariga mos harakatni bildirgan soʻz topib yozing.

124-mashq. Oʻqing. Harakatni bildirgan soʻzlarni topib koʻchiring.

Men Javohir bilan dalaga bordim. Shudring tushgan oʻtloqda rosa aylandik. Ikkalamiz bir xalta yalpiz, jagʻjagʻ, ismaloq terdik.

■ Yalpiz, ismaloq, jagʻjagʻ kabi dorivor koʻkatlarning foydasini bilasizmi?

Savollarga ogʻzaki javob bering:

1. Shaxs va narsaning harakatini bildirgan soʻzlar qaysi soʻroqlarga javob boʻladi?
2. Shaxs va narsaning harakatini bildirgan soʻzlar tagiga nechta chiziq chiziladi?



125-mashq. Quyida berilgan savollarga javob yozing.

1. Hozir siz qaysi kitobni o'qiyapsiz?
2. Siz biror to'garakka boryapsizmi?

■ Shaxs va narsaning harakatini bildirgan so'zlarni topib, tagiga ikki chiziq chizing.



Shaxs va narsaning belgisini bildirgan so'zlar



126-mashq. O'qing. Ajratilgan so'zlarga so'roq bering.

Oq gulim, oppoq gulim,
Ushlab ko'rsam yumshoq gulim.



■ Ko'chiring. Qanday?, qanaqa?
so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.

Namuna: Oq gulim, ...

Shaxs va narsaning belgisini bildirgan so'zlar qanday?, qanaqa?
so'roqlariga javob bo'ladi.

127-mashq. Matnni o'qing. **Qanday?**, **qanaqa?** so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni toping.

Qishlog'imizda gilos, olma bog'lari bor. Bahorda mevali daraxtlar oq, pushti rangda gullaydi. Yozda va kuzda shirin va mazali mevalar pishadi. Biz mevalarni terishda bog'bonga yordam beramiz.

■ So'roqlar o'rniga mos so'zni qo'yib yozing.

Qanday? bog', **qanday?** daraxtlar, **qanaqa?** rang, **qanday?** mevalar.

128-mashq. Chiziqlar o'rniga belgini bildirgan so'zlarni qo'yib, gaplarni o'qing.

Polizda _____ qovunlar pishdi.

Men _____ ertak o'qidim.

Bozordan _____ olma sotib oldik.



129-mashq. Belgini bildirgan soʻzlarga mos shaxs yoki narsaning nomini bildirgan soʻzlar topib, namunadagidek yozing.

Chiroyli, odobli, shirinsoʻz, mahmadona, aqlli, goʻzal.

Namuna: **Chiroyli shahar**, ...

■ Maʼnodosh soʻzlarni topib ayting.



130-mashq. Oʻqing. Soʻzlarga soʻroq bering.

Koʻk, dumaloq, oq, shirin, sershox, nordon, achchiq, pakana, sariq, yashil, uzunchoq, chuchuk, mazali, qizil, qiyshiq, bemaza.

■ Soʻzlarni maʼnosiga koʻra guruhlarga ajratib yozing.

Rang bildiruvchi soʻzlar	Maza bildiruvchi soʻzlar	Shakl bildiruvchi soʻzlar

131-mashq. Chiziqlar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gap tuzing va yozing.

1. _____ bola elga manzur.
2. _____ gap bilan ilon inidan chiqadi.
3. _____ so'zni so'zlama.
4. Yolg'onchining _____ gapi ham yolg'on.

Foydalanish uchun so'zlar: **yaxshi, yolg'on, rost, odobli.**

■ **Qanday?** so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarning tagiga to'liqinli chiziq chizing.



132-mashq. Topishmoqning javobini toping. Uni topishda sizga qaysi so'zlar yordam berdi?



1. O'zi shirin, tukligina,
Mazasi ham totligina.

2. Oq sandig'im ochildi,
Olamga zar sochildi.



■ Ko'chiring. **Qanday?**, **qanaqa?** so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarning tagiga to'liqinli chiziq chizing. **Totli** so'ziga ma'nodosh so'z toping.



133-mashq. Rasmni kuzating. Bolalarga ism qo'ying.



Savollarga javob yozing:

1. Bolalar nima qilyapti?
2. Bog'da qanday gullar ochilgan?
3. Gullarga qanday kapalaklar qo'n-yapti?

■ Belgini bildirgan so'zlarning tagiga chizing.

134-mashq. Har bir ustunchadagi soʻzlardan gap tuzib yozing.

issiq	koʻm-koʻk	qoqigullar
boshlandi	koʻkardi	sariq
kunlar	maysalar	ochildi

■ **Qanday?**, **qanaqa?** soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlarning tagiga toʻlqinli chiziq chizing. Ular nimalarning belgisini bildiriyapti?

135-mashq. Oʻqing. Gapdagi soʻzlarni maʼnolariga koʻra tahlil qiling.

Saida chiroyli gullar terdi.

Komil qiziq hikoya oʻqidi.

Namuna: **Saida** – kim?, shaxs maʼnosi; **gullar** – nimalar?, narsa maʼnosi; **terdi** – nima qildi?, harakat maʼnosi; **chiroyli** – qanday?, belgi maʼnosi.

Savol va topshiriqlarga ogʻzaki javob bering:

1. Rang, maza, shakl bildirgan soʻzlarga misollar keltiring.

2. Shaxs va narsaning belgisini bildirgan soʻzlar qaysi soʻroqlarga javob boʻladi?



136-mashq. Belgini bildirgan soʻzlarni rasmdagi shaxs va narsa nomlari bilan yozing.

Shirin



Odobli



Chiroyli



Shaxs va narsaning miqdorini va tartibini bildirgan soʻzlar

137-mashq. Raqamlarni oʻqing. Ularning har biriga soʻroq bering.

1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10

■ Beshta raqamni nom bildirgan soʻzlar bilan yozing.

Namuna: **Bitta olma**, ...



138-mashq. Sheʼrdagi **necha?** soʻrogʻiga javob boʻladigan soʻzlarni toping.

Laylaklar



Moʻjaz hovuz,
Qoʻsh olmurut,
Bir juft chinor.
Uch tup yashil
Baqaterak
Adil turar.

Ikki laylak
Xashak tashir,
Bir daraxtni
Makon etdi,
Ark qildi.

Tursunboy Adashboyev


■ Ko'chiring. Miqdorni bildirgan so'zlarning tagiga to'liqinli chiziq chizing.

Shaxs va narsaning miqdorini bildirgan so'zlar **necha?** yoki **nechta?** so'rog'iga javob bo'ladi.



139-mashq. Raqamlarni so'zlar bilan o'qing va namunadagidek yozing.

Namuna: **Bir yil — o'n ikki oy, ...**





140-mashq. Namunaga qarab o'qishni o'rganing.

Namuna: **1-sinf — birinchi sinf**, ...

1-sinf, 7-ko'cha, 5-qator, 3-uy, 2-farzand.

■ Raqamlarni so'z bilan yozing. Qaysi raqamlarda yonma-yon kelgan bir xil undosh yoziladi?

■ O'ylang. Chiziqcha o'rniga qaysi qo'shimcha yozildi?

Shaxs va narsaning tartibini bildirgan so'zlar **nechanchi?** so'rog'iga javob bo'ladi.

141-mashq. Raqamlarni narsa yoki shaxs nomini bildirgan so'zlar bilan namunadagidek yozing.

Namuna: **O'n beshinchi qator**, ...

2-, 14-, 7-, 8-, 19-.

142-mashq. Nechta? nechanchi?

so'roqlari o'rniga miqdor, tartibni bildirgan so'zlarni qo'yib o'qing.

Nechta? eshik, nechanchi? sinf,
nechta? deraza, nechanchi? qator,
nechta? o'quvchi.

Namuna: Bitta eshik, ...

Savol va topshiriqlar:

1. Shaxs va narsaning miqdorini bildirgan so'zlarning so'rog'ini ayting.
2. Shaxs va narsaning tartibini bildirgan so'zlarning so'rog'ini ayting.
3. Yonma-yon kelgan bir xil undoshli miqdor bildirgan so'zlarni yozing?




143-mashq. O'qing. Topishmoqning javobini toping.



1. Besh juft oshna
Doim ishga tashna.

2. To'rtta uning oyog'i,
 Temir mixli tuyog'i.
 Manzilga yetishtirar,
 Toshdan qattiq tuyog'i.



● **Necha?**, **nechta?**, **qanday?** so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni topib yozing.



144-mashq. O'qing. Matnning nima haqida ekanini ayting.



Qadimda odamlar baland osmonda uchishni orzu qilganlar. Afsonaviy uchar gilamlar haqida ertaklar to'qishgan. Ularning orzulari haqiqatga aylandi. Ixcham va qulay samolyotlar

yaratildi. Hozir O'zbekistondan jahonning ko'plab mamlakatlariga samolyotlar qatnamoqda.

■ Shaxs, narsa, belgi va harakatni bildirgan so'zlarni toping.

■ So'zlarning imlosini yodda tuting.

145-mashq. She'rni o'qing.

O'rmonda

Chak-chak tomib sumalak,
Ko'zlarini yoshlaydi.
Ariqchalar chuldirab,
Qo'shig'ini boshlaydi.
Jonivorlar uqtirar
Mudroq ayiqpolvonga:
— Ajablanma, maymoqvoy,
Bahor keldi o'rmonga!



Hamza Imonberdiyev

■ Narsalar va jonivorning harakatini bildirgan so'zlarni ko'chiring.



146-mashq. Ko'chiring. Raqamlarni so'z bilan yozing.



1. 2 yaproq 1 tanda,
Yozda kezar chamanda.

2. Uzoqdan boqsam, 1 qora
tosh,
Yoniga borsam, 4 oyoq
1 bosh.



■ **Necha?** yoki **nechta?** so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarning tagiga to'liqinli chiziq chizing.

Namuna: Ikki yaproq, ...



147-mashq. So'roqlar o'rniga mos so'z qo'yib, gaplarni o'qing.

1. **Kimlar?** quyon boqdi.
2. Quyonlar **nechta?** bo'ldi.
3. Bolalarga **qanday?** quyonlar yoqdi.

■ Gaplar nimalardan tuzilgan?

148-mashq. Ko'chiring. She'r ni-
ma haqida ekanini ayting.

Vatanim — **quyosh**,
Boshimni **silar**.
U menga **ko'z-qosh**,
Iqbolim **tilar**...

Obid Rasul

■ Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'-
roq bering. Ular nimani bildiriyapti?



149-mashq. Ko'chiring. Hara-
katni bildirgan so'zlarning tagiga
chizing.



Chiniqish

Erta tongda turaman,
Hovlida yuguraman.
Mashq qilib: bir, **ikki**, uch...
Chiniqaman **to'plab** kuch.

Sobir Jabbor

■ Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning im-
losini yodda tuting.



NUTQ. GAP

Ogʻzaki nutq va yozma nutq



150-mashq. Ustoz va shogirdga ism qoʻyib, rasm mazmunini hikoya qiling.



■ Siz tuzgan hikoya nima deyiladi? Nutqingiz nimalardan tuzildi?

151-mashq. Matnni oʻqing.

Anvar rassom boʻlishni istaydi. U koʻm-koʻk dala, begʻubor osmon rasmini chizdi. Rasm oʻrtoqlariga yoqdi.

■ Ko‘chiring. Anvar haqida nimalarni bilib oldingiz? Siz qanday nutq o‘qidingiz? Hikoya nimalardan tuzilgan?



152-mashq. O‘qing. Hikoya nimalardan tuzilgan?

Ziyofat

Bahorda Orifjon yetti yoshga to‘ldi. U Furqat, Farhod, Nilufarni uyiga taklif qildi. Orifjonning onasi bolalarni shirinliklar bilan mehmon qildi.

■ Ko‘chiring. Shirinliklarga nimalar kirishini ayting.



153-mashq. Rasm asosida savollarga javob bering.

«Mehmon-mehmon» o‘yini



1. Mehmon kelganda qanday kutib olinadi?

2. Mehmonning qo'liga suv qanday quyiladi?

3. Mehmonga sochiq qanday tutiladi?

154-mashq. O'qing. Siz qanday nutq o'qiganingizni ayting.

Zarif va Zafar

Zarif shaharda yashaydi. U qishloqdagi xolasining uyiga bordi. Zarif u yerda Zafar akasiga yordamlashdi.

■ Ko'chiring. **Yordamlashdi** so'ziga ma'nodosh so'zlar toping.



155-mashq. O'qing. Siz qanday nutq o'qiganingizni ayting.

Afrika jirafasi tez yuguradi. U katta qadam tashlaydi. Yugurganda uning har bir odimi to'rt-besh metr keladi.

■ Ko'chiring. Matndan **qadam** so'ziga ma'nodosh so'zni toping.



Gap



156-mashq. O‘qing. Har bir gapning oxirida ovozingizni pasaytir.

Biz hayvonot bog‘iga bordik. Bog‘ keng maydonni egallabdi. Hayvonot bog‘ida dengiz akvariumi ham bor ekan.

■ Ko‘chiring. Nechta gap yozdingiz? Har bir gap qanday harf bilan boshlangan? **Dengiz akvariumi** deganda nimani tushundingiz?

Gap so‘zlardan tuziladi. Gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan yoziladi.

157-mashq. O‘qing.

Quddus Muhammadiy

Quddus Muhammadiy — bolalarning sevimli shoiri. Bolalar shoirning «Tabiat alifbesi» kitobini sevib o‘qiy-

dilar. Bu kitob ona tabiatni va joni-
vorlarni sevishga o'rgatadi.

■ Ko'chiring. Nechta gap yozdingiz?
Gaplar sonini qanday aniqladingiz?



158-mashq. O'qing. Matn nech-
ta gapdan iboratligini aniqlang.

Shohimardon

Shohimardon — Farg'ona vodiysi-
ning chiroyli joylaridan biri. U yerda
oromgohlar ko'p.

Shohimardon yaqinidagi **baland**
cho'qqilarda alpinistlar mashq
o'tkazishadi.

■ Ko'chiring. Ajratilgan so'zlarning
imlosini yodda tuting.





159-mashq. Rasmga qarab 3 ta gap tuzing.

160-mashq. O'qing. Ertak nechta gapdan tuzilganini ayting.

Qadim zamonda bir kampir bilan chol yashagan ekan. Ular ovchilik bilan kun ko'rishar ekan.

Chol tuzoq qo'yibdi. Tuzoqqa katta laylak tushibdi. Shu payt laylak odamday so'zlay boshlabdi...

(Ertakdan)

■ Birinchi va to'rtinchi gaplar kim va nima haqida aytilgan? Ertakni davom ettiring.



161-mashq. Chiziqlar o'rniga tushirib qoldirilgan so'zlarni qo'yib, matnni ko'chiring. Gaplar oxiriga tegishli tinish belgisini qo'ying.

Yordamchi qiz

Mening _____ yaxshi pazanda
Onam jizzali _____ yopadi Onam
_____ taomlar pishiradi Onam tay-
yorlagan lag'mon, manti, norin
menga _____ Men doim onamga _____

Foydalanish uchun so'zlar: **onam**,
nonlar, **mazali**, **yoqadi**, **yordamla-**
shaman.



162-mashq. Ko'chiring. She'r-
dagi har bir gapning oxiriga qaysi
tinish belgilari qo'yilgan? Nima
uchun?

Yurak kerak

— Yomg'ir quysa, osmonga
Nima kerak?

- Chelak kerak.
- Qor yog'sa-chi, osmonga Nima kerak?
- Elak kerak.
- Yomg'ir, qordan qo'rqqanga Nima kerak?
- Yurak kerak!

Po'lat Mo'min

■ Oxiriga so'roq belgisi qo'yilgan gaplar qanday mazmunni bildiriyapti?

Xabar mazmunidagi gapning oxiriga nuqta (.) qo'yiladi.

So'roq mazmunidagi gapning oxiriga so'roq belgisi (?) qo'yiladi.

His-hayajon mazmunidagi gapning oxiriga undov belgisi (!) qo'yiladi.

163-mashq. O'qing. Nima uchun ayrim gaplar oxiriga so'roq belgisi qo'yilgan?

Tog'dan so'rashdi:

- Sendan qudratli narsa bormi?
- Bor, Inson bilan Mehnat.

— Sen-chi, sen nima deysan, ona Yer?

— Men Inson va **Mehnat** bilan tirikman.

— Ha, azim **Togʻ**, ona **Zamin**ning hukmdori **Inson** va Mehnatdir.

(Ertakdan)

■ Nega ajratib koʻrsatilgan soʻzlar bosh harf bilan yozilgan?

■ Sizningcha, dunyoda kim qudratli?



164-mashq. Har bir gapni tugallangan ohang bilan oʻqing. Hikoya nechta gapdan tuzilgan?

Hovlimizda bir tup gilos bor. Gilosimiz pishdi. U pishishi bilan hovlimiz qushlarga toʻldi. Mening qushlarga havasim keldi. Men ham oʻrtoqlarimni gilosxoʻrlikka taklif qildim.

■ Gaplar oxiriga tegishli tinish belgisini qoʻyib koʻchiring.



165-mashq. Qo'zichog'im so'zini harakatni bildirgan so'zlar bilan ko'chiring.



Sezgir cho'pon

Qo'zichog'im ma'raydi,
Menga zimdan qaraydi.
Bu qarashning ma'nosi —
O't bilan suv so'raydi.

Anvar Obidjon

■ Gaplarning oxiriga nima uchun nuqta qo'yilgan?

166-mashq. O'qing. Ertakka sarlavha qo'ying.

Chumoli bug'doyni iniga olib keta-yotgan edi. Chumchuq pirillab uning yoniga tushdi va dedi:

— Chumoli, bug'doyni menga ber.

Chumoli dedi:

— Qanoting bor, ko'zing bor.
O'zing topib ye.

Aziz Abdurazzoqdan

■ Birinchi va oxirgi gaplarda nima haqida soʻz boryapti?



167-mashq. Oʻqing. Topishmoq sheʼrning javobini toping.

Topishmoq sheʼr

Boʻy-bastinga qara, boq,
Qiziqqon olovman naq.
Shu sababdan doimo
Hamrohim hayajon, zavq.



Anvar Obidjon

■ Koʻchiring. Topishmoq sheʼrga yana qanday sarlavha qoʻyish mumkin?



168-mashq. Tinish belgilarining qoʻyilishiga eʼtibor berib, suhbatni oʻqing.

Bir kuni Raʼno buvisi bilan suhbatlashdi.

- Boychechak qayerda oʻsadi?
- Huv oʻsha qir-adirlarda oʻsadi.

Tepalik etagida boychechak uxlab yotibdi.

— U qachon uygʻonadi?

— ...Bahor kelganda eng birinchi boʻlib boychechak uygʻonadi!

Aziz Abdurazzoqdan

■ Gaplarning oxiriga nima uchun nuqta, soʻroq yoki undov belgisi qoʻyilgan?

■ Raʼnoning buvisi aytgan gaplarni koʻchiring.

169-mashq. Oxiriga soʻroq va undov belgisi qoʻyilgan gaplarni koʻchiring. Gaplar oxiriga tinish belgilarning qoʻyilish sababini tushuntiring.

Qasos

(Hazil sheʼr)



Qalaysan, babaq xoʻroz?
Qoʻlga tushding,
Qanday soz!
Uyqum buzib har safar,

Qichqirarding har sahar.
Quvsam, tutqich bermasding,
Hech gapimga kirmasding.
Berolmaysan endi pand,
Seni yeyman, xo'rozqand!

Anvar Obidjon



170-mashq. «O'qish kitobi»dagi
«Alisherning yoshligi» hikoyasidan
undov gaplarni topib ko'chiring.



171-mashq. Gaplar oxiriga nima
uchun so'roq belgisi qo'yilgan?

1. Siz ona tili darsida nimalarni o'rgandingiz?
2. Ona tilidan uyga qanday vazifa berildi?
3. Uy vazifasini o'zingiz bajarasizmi?

■ Savollarga javob bering va yozing.

172-mashq. O'qing. Topishmoqning javobini ayting. Topishmoq nechta gapdan tuzilganini aniqlang.



Maydoni tekis, oppoq,
Urug'i qora munchoq.
Qo'l bilan ekiladi,
Ko'z bilan teriladi.

■ Ko'chiring. **Qanday?** so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarning tagiga chizing.



173-mashq. Ohang yordamida gaplarning chegarasini aniqlang.

Men Saidjon bilan qishloqqa bordim qishloq shahardan salqin ekan quyosh issig'ini daraxtlar sezdirmaydi biz anhorda cho'mildik

■ Gaplarning oxiriga tegishli tinish belgisini qo'yib ko'chiring.



174-mashq. O'qing. Tengdoshi-
ngiz kim haqida hikoya qilib berdi?

Mening bobomni bilasizmi? Mening
bobom — cho'pon. Bobomning qirda
qo'ylari ko'p. Bobom doim otda
yuradi. Bobom ulqda hech kimni
oldiga tushirmaydi.

Hakim Nazirdan

■ Ko'chiring. Nima uchun gaplar
oxiriga so'roq belgisi va nuqta
qo'yilgan?

175-mashq. Ibn Sino bilan otasi-
ning gapini topib ko'chiring.

Ibn Sino

Bir kuni otasi Ibn Sinodan so'rab-
di:

— Bolam, katta bo'lganingizda kim
bo'lasiz?

Ibn Sino shunday javob beribdi:

— Men tabib bo'laman. Sizni,
onamni, hamma odamlarni davolay-
man.

«Asotir va rivoyatlar»dan

■ Ko‘chirgan gaplaringiz oxiriga qanday tinish belgilari qo‘yilgan? Nima uchun?



176-mashq. «Mening orzum» mavzusida to‘rtta gap tuzib yozing.



177-mashq. Har bir qatordagi so‘zlardan gap tuzing va yozing.

Yashil, ko‘kardi, o‘tlar
Daraxtlar, yozdi, barg
ochildi, Qizil, gullar
sayradi, Bulbullar, sho‘x

■ Gaplarning oxiriga qanday tinish belgisi qo‘ydingiz? Nima uchun?

178-mashq. O‘qing. Matn nechta gapdan tuzilganini ayting. Gaplar oxiriga nima uchun so‘roq belgisi yoki nuqta qo‘yilgan?

Maktub tashuvchi kabutar haqida eshitganmisiz?

Ular bir yurtidan ikkinchi yurtga xat tashiydi.

■ Ko'chiring. **Maktub** va **xat** so'zlari qanday ma'noni bildiradi?

179-mashq. O'qing. Matn nechta gapdan tuzilgan?

— Yo'ldosh bobo, nega bo'rini hamma yomon deydi? Uning hech yaxshi ishi yo'qmi?

— Bir kuni cho'l-u biyobonda qolib ketib, suv qidira boshladik. Uzoqda bir jonivor yer kovlayotganini ko'rdik. U bo'ri ekan. Biz bo'rining sahroda suv bor joyni bilishiga guvoh bo'ldik.

Zamira Ibrohimovadan

■ Gaplarning oxiriga nima uchun so'roq yoki nuqta qo'yilgan?

Savollarga og'zaki javob bering:


1. Nutq deganda nimani tushunasiz?
2. Nutq nimalardan tuziladi?
3. Gapning birinchi so'zi qanday harf bilan yoziladi?

4. Gaplarning oxiriga qaysi tinish belgilari qo'yiladi? Nima uchun?



180-mashq. She'rni o'qing.
She'r nima haqidaligini ayting.

Yaxshi so'z



Uchrashib qoldi
Burgut va kaptar.
Biri-biridan
Hol-ahvol so'rar:

- Nima gap tog'da?
- Tinchlik tog'larda!
- Nima gap bog'da?
- Tinchlik bog'larda!

Dil ravshan tortib,
Chaqnar edi ko'z.
Hammaga yoqar
Tinchlik degan so'z.

Habib Rahmat

■ Ikkinchi to'rtlikni ko'chiring. Gaplar oxiriga qaysi tinish belgilari qo'yilgan? Nima uchun?



O'QUV YILI OXIRIDAGI TAKRORLASH

181-mashq. She'ning dastlabki ikki misrasini ko'chiring. Unlilar tagiga bitta, undoshlar tagiga ikkita chiziq chizing.

Orzu

Biz Vatanning yulduzi,
Ertasi — umid ko'zi,
Xizmat qilmoq baxt o'zi.
Tilimizda shu orzu,
Dilimizda shu orzu.

Habib Rahmat

182-mashq. O'qing. So'zlarni bo'g'inlarga bo'ling.

Ilmning cheki yo'q. Qancha ko'p o'qisangiz, bilimingiz shuncha oshadi. Odam ilm bilan yuksaklikka ko'tariladi.



183-mashq. Nuqtalar o'rniga **x** va **h** harflaridan mosini qo'yib, so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib yozing.

.ovli, .alq, .olva, .ikoya, .arf,
.irmon, me.mon, xonta.ta, me.ribon.

■ Yozganlaringizni lugʻatdan tekshiring.



184-mashq. Topishmoqning javobini toping. Ajratilgan soʻzlarga soʻroq bering. Ular nimani bildiriyapti?



Oyogʻi yoʻq-ku, lekin
Pastga qarab **chopadi**.
Bogʻ-rogʻlar-u sahrolar
Undan hayot topadi.
Agar chiqmasa **quyosh**,
Xafa boʻlib **toʻkar yosh**.

185-mashq. Oʻqing.

Bolalar bilan hayvonot bogʻiga bordik. U yerda choʻl va sahrolarda, togʻ va oʻrmonlarda yashaydigan hayvonlarni koʻrdik.

■ Ikkinchi gapni koʻchiring. Shaxs, narsa va harakatni bildirgan soʻzlarning tagiga tegishli chiziqlar chizing.

186-mashq. O‘qing.**Non**

Kishilar qadim zamonlardan buyon nonni e‘zozlaydilar. Uni oltinga, quyoshga qiyoslaydilar. Nonni tejaydilar. Non — hammamizning rizq-ro‘zimiz.

■ **Kimlar?, nima?, nimalar?, nima qiladilar?** so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni toping.

**187-mashq.** O‘qing.**Tulki**

Tulki hidni tez sezadi. U qishda sichqon ovlaydi.

Tulki bahorda yoki yozning boshida bolalaydi. Bolalari to‘rt oylik bo‘lganda mustaqil bo‘ladi.

■ **Nima qiladi?** so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni ko‘chiring.



188-mashq. O‘qing. Gaplarning oxiriga qaysi tinish belgisi qo‘yilgan? Nima uchun?

- Kecha-kunduz necha soat, Qani, ayt-chi, Adolat?
- Topdim-topdim, bilib oldim, U yigirma to‘rt soat.



Obid Rasul

189-mashq. O‘qing. Matndan nimalarni bilib oldingiz?

— Quchoq-quchoq **lola** teribsizlar. Tog‘ga chiqdinglarmi?

— Ha, tog‘ etagida **sariq, qizil** lolalarni **terdik**.

— Ilgari **lolalar** bog‘larda, dalalarda ko‘p bo‘lardi. **Odamlar** uzib bitirishdi. Sizlar uzgan lolalar ham kelgusi yil unib chiqmaydi. Uzaversangiz, tog‘dagi lolalar ham **tugaydi**.

O‘tkir Hoshimovdan

■ Matnda nechta gap bor? Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering. Ular qanday ma'no bildiriyapti?

190-mashq. She'rni ifodali o'qing.

Birinchi iyun

— Bilag'on deb atashar
Do'stlaring seni, Suyun.
Top-chi, qanday kun o'zi,
Deylik, birinchi iyun?

— O'sha kuni ta'tilga
Chiqishadi bolalar.
Farzandlarin hordiqqa
Jo'natadi onalar.

— Aytganlaring-ku to'g'ri,
Bilib ol yana shuni:
Birinchi iyun, jo'ra,
Yozning tug'ilgan kuni.

Abdurahmon Akbar



Lugʻat

A

Abbos
avtobus
avtomat
anjir

B

baho
bahra
barg
barmoq
behisob
bodom
bogʻbon
buzoq

D

davlat
davo
daʻvo
duradgor
doʻlana

E

echki

G

garaj
gulsafsar

H

harf
havo
hikoya
hisob
hissa
holva
hovli

J

jahon
jayra
jayron

K

karam
karnaygul
kartoshka
kitob
koptok
kuchuk

L

lavlagi

M

maqsad
mard
mehmon
mehribon
mix
musaffo
mushuk

N

na'matak

O

odob
oftob
olmurut
olxo'ri
ozod
oshpaz

P

paxta
pilla
piyola
piyoz
pishloq

Q

qarmoq
qayiq
qaymoq
qishloq
qozon
quloq
qo'zichoq

R

rubob

S

sabzi
sakkiz
sarimsoq
sigir
sovun
sovuq
supurgi

so‘qmoq

T

talaffuz

taqir-tuqur

tarvuz

taqlid

taxta

tennis

tilla

toychoq

tog‘olcha

tub

tuynuk

tumshuq

turp

tuxum

to‘qqiz

U

ukki

uzuk

uzum

X

xalq

xirmon

xola

xona

xontaxta

xo‘tik

Y

yaxmalak

yetti

yong‘oq

Z

zanjir

Zaynab

Sh

shaftoli

shamol

shaxmat

shifokor

sholg‘om

shotut

Ch

chinnigul

chittak

choynak

choyshab

MUNDARIJA

Ona tilim	3
Tovushlar va harflar	
Tovush va harf	4
Unli tovushlar va harflar	8
Undosh tovushlar va harflar	15
Harflar birikmasi	19
Tutuq (') belgisi	30
Alifbo	32
Bo'g'in	35
So'zlarni bo'g'inlab ko'chirish	39
So'z	
So'zning ma'nosi	45
Shaxs va narsaning nomini bildirgan so'zlar	49
Kishilar ismi va familiyasining bosh harf bilan yozilishi	52
Joylarga atab qo'yilgan nomlarning bosh harf bilan yozilishi	56
Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlarning bosh harf bilan yozilishi	60
Shaxs va narsaning harakatini bildirgan so'zlar	64
Shaxs va narsaning belgisini bildirgan so'zlar	70
Shaxs va narsaning miqdorini va tartibini bildirgan so'zlar	76
Nutq. Gap	
Og'zaki nutq va yozma nutq	85
Gap	88
O'quv yili oxiridagi takrorlash	103
Lug'at	108

G' – 27

G'afforova T. va boshq.

Ona tili: 1-sinf uchun darslik /Muall. T. G'afforova, E. Shodmonov, X. G'ulomova. — T.: «Sharq», 2019. — 112 b.

I. 1, 2. Muallifdosh.

ISBN 978-9943-26-901-9

UO'K 811.512.133 (075.2)

KBK 81.2.O'z-922

O'quv nashri

TAL'AT G'AFFOROVA, ERGASH SHODMONOV, XOLIDA G'ULOMOVA

ONA TILI

**Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
1-sinfi uchun darslik**

O'n beshinchi nashr

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent – 2019

Muharrir *Eldor Bozorov*
Badiiy muharrir *Shirin Abilxayirova*
Rassom *G. Shoabdurahimova*
Texnik muharrir *Juldiz Kadirova*
Sahifalovchi *Mastura Atxamova*
Musahhihlar: *Ma'mura Ziyamuhamedova, Sharofat Xurramova*

Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011

Bosishga ruxsat etildi 24.01.2019. Bichimi 70x90 1/16. «Pragmatic» garniturası. Kegli 18 shponli. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 8,19. Nashriyot-hisob tabog'i 6,5. Adadi 533762 nusxa. Buyurtma № 425.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, «Buyuk Turon» ko'chasi, 41.**